Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
Karimov Ilhom Normamatovich	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
Karimov Ravshanbek Rizomatovich	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
Kayumova Dilnoza Patxulla qizi	

Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi.....	1978
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili.....	1982
Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi	
Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlari.....	1986
Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati.....	1990
Murodova Farangis G'anisherovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari.....	1994
Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli.....	1997
Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li	
Ingliz tilini o'rgatishda interrogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi.....	2003
Normamatova Dilfuza Turdikulovna	
Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati.....	2008
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish.....	2011
Romanova Lola Karimbayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish.....	2014
Rustamova Gulmira Yoryigit qizi	
Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari.....	2018
Sadinov Oybek Ziyot o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish.....	2021
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish.....	2024
Shermuxevedova Dilnozaxon Raximjdjanovna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi.....	2028
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi.....	2031
Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi.....	2034
Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich	
Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish.....	2039
Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi	
Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish.....	2043
Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi	
Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi.....	2046
Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna	
Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash.....	2050
Umarov Abdurasul Abduraximovich	
Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	2058
Umarov Xusanboy Rustamovich	
Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences.....	2062
Usmanova Nargiza Kudratullayevna	
Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlari (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil).....	2065
Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich	
Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari.....	2069
Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li	
Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli ...	2073
Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li	
Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	2080
Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna	



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoiri Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yuldasheva Dilshoda To'liqinovna	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'liqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	
Maktab o'quvchilarini jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda amaliy mashqlarning samaradorligi	2135
Achilov Telman Sa'dullayevich	
O'zbekiston va xorijiy davlatlar adabiyot o'qitish metodikalarining qiyosiy tahlili	2138
Abdullayeva Maftuna Odiljon qizi	
Murod Muhammad Do'st hikoyalarida o'zbekona qadriyatlar va ularning til vositasida ifodalanishi	2144
A. K. Xamidov	
Innovatsion qarashlar asosida raqamli ta'lim tashkil etish metodikasi	2150
Pozilova Sh. X., Choriyeva Xursanoy Xusanovna	
Bolalik – insonning ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri	2153
Gaziyeveva Nigora Shamsiddinovna, Xodjimatoeva Nazira Toshmatovna	
Umumta'lim maktablarida strategik rejalashtirishning sifat ko'rsatkichlari	2157
Mamayusupova Muattar Qosimjonovna	
Psychodiagnostics of the Relationship Between Existential Vacuum and the Religious Factor in an Individual	2161
Saydaliyeva Mehriniso Umidullayevna	
Современное дошкольное образование Финляндии: сравнительный анализ с системой дошкольного образования Узбекистана	2165
Владимирова Любовь Владимировна	
Сложносокращённые слова в средствах массовой информации	2168
Рахмонова Бахтигул Пайзиллоевна	
Biologiya fanini o'qitishda elektron darsliklar, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalarning metakognitiv rivojlanishga ta'siri	2172
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna	

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ELEKTRON DARSLIKLAR, ONLAYN PLATFORMALAR VA VIRTUAL LABORATORIYALARNING METAKOGNITIV RIVOJLANISHGA TA'SIRI

Abdurasulova Gulrux Habibullayevna

Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Abstract: Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda elektron darsliklar, onlayn ta'lim platformalari va virtual laboratoriyalardan foydalanishning o'quvchilarda metakognitiv rivojlanish jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri har tomonlama o'rganildi. Raqamli pedagogika vositalari ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash strategiyalarini rejalashtirish, nazorat qilish, tahlil etish va baholash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan. Tadqiqot davomida interaktiv resurslarning vizual modellashtirish imkoniyatlari, tajribalarni xavfsiz virtual muhitda amalga oshirish qulayligi hamda o'quvchilarda refleksiv faollikni oshiruvchi pedagogik sharoitlar batafsil tahlil qilindi. Olingan natijalar elektron darsliklar va virtual laboratoriyalar biologiya ta'limining mazmunini chuqurlashtirishi, mustaqil o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirishi va metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

Key words: elektron darsliklar, metakognitiv rivojlanish, onlayn platformalar, virtual laboratoriya, refleksiya, o'z-o'zini baholash, biologiya ta'limi, raqamli pedagogika.

Annotatsiya: This article provides a comprehensive analysis of the impact of electronic textbooks, online learning platforms and virtual laboratories on students' metacognitive development in biology education. The study demonstrates that digital learning tools significantly enhance learners' abilities to plan, monitor, analyze and evaluate their own thinking processes. Interactive resources, visual simulations and safe virtual experimentation environments are shown to effectively promote reflective thinking and self-regulated learning. The findings indicate that the use of e-textbooks and virtual laboratories enriches the content of biology education, increases students' motivation for independent learning and plays an essential role in fostering metacognitive competencies.

Kalit so'zlar: e-textbooks, metacognitive development, online learning platforms, virtual laboratory, reflection, self-assessment, biology education, digital pedagogy.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируется влияние использования электронных учебников, онлайн-образовательных платформ и виртуальных лабораторий на метакогнитивное развитие учащихся в процессе изучения биологии. Установлено, что цифровые образовательные ресурсы существенно способствуют формированию навыков планирования, контроля, анализа и оценки собственных мыслительных процессов. В ходе исследования подробно рассмотрены возможности интерактивных материалов, визуального моделирования, проведения экспериментов в безопасной виртуальной среде, а также педагогические условия, повышающие рефлексивную активность учащихся. Полученные результаты показывают, что электронные учебники и виртуальные лаборатории углубляют содержание биологического образования, усиливают мотивацию к самостоятельному обучению и являются важным инструментом формирования метакогнитивных компетенций.

Ключевые слова: электронные учебники, метакогнитивное развитие, онлайн-платформы, виртуальная лаборатория, рефлексия, самооценка, обучение биологии, цифровая педагогика.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli pedagogika vositalarining o'rni tobora kuchayib bormoqda. Xususan, elektron darsliklar, interaktiv onlayn platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, virtual laboratoriyalar va multimedia simulyatsiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini yaxshilashning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli vositalar o'qituvchiga mavzuni vizual, dinamik va interaktiv tarzda yoritish imkonini berar ekan, o'quvchilar uchun ham murakkab tushunchalarni oson anglash, kuzatish, tajriba orqali o'rganish va o'zlashtirishning yangi usullarini yaratadi. [4; 9; 12]



Biologiya fani tirik organizmlarning tuzilishi, funksiyalari, o'zaro munosabati, ekologik tizimlar, irsiyat, evolyutsiya kabi murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunday jarayonlarni tushuntirishda an'anaviy darsliklarning imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, ko'plab hollarda vizualizatsiya, modellashtirish va eksperimentni real sharoitda bajarish imkoni bo'lmaydi. Shuning uchun biologiya ta'limida raqamli resurslardan foydalanish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Virtual laboratoriyalar orqali hujayra bo'linishi, fermentlar faoliyati, genetik jarayonlar, fotosintez, ekologik muvozanat kabi jarayonlarni fazoviy va vaqt bo'yicha aniq modellashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o'quvchilarda ilmiy tafakkur, kuzatish madaniyati, tahliliy fikrlash va tajriba asosida xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. [5; 7]

So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda o'quvchining metakognitiv rivojlanishi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanmoqda. Metakognitiv rivojlanish – o'quvchining o'z bilim jarayonini anglash, uni boshqarish, strategik rejalashtirish, o'z-o'zini monitoring qilish va baholay olish qobiliyatidir. Bu jarayon yuqori darajadagi fikrlash, chuqur o'rganish, mustaqil bilim olish va refleksiv yondashuvni talab qiladi. Metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirgan o'quvchi nafaqat bilimlarni yodlaydi, balki ularni qanday o'rganiganini, qaysi strategiya samarali bo'lganini va natija qanday o'zgarganini ongli ravishda tahlil qiladi. [1; 2; 3; 5; 7]

Biologiya fanida metakognitiv rivojlanish ayniqsa muhim, chunki bu fan tajriba, tahlil, kuzatish va ilmiy asoslangan xulosa chiqarishga tayanadi. Onlayn platformalarning adaptiv testlari, elektron darsliklardagi interaktiv mashqlar, virtual laboratoriyalardagi takroriy simulyatsiyalar o'quvchini o'z fikrini boshqarishga, xatolarni anglash va to'g'rilashga undaydi. Bu jarayon esa metakognitiv siklning barcha bosqichlarini – rejalashtirish, monitoring, nazorat va refleksiya – tabiiy ravishda faollashtiradi.

Xalqaro tadqiqotlar (Mayer, Chi & Wylie; Zimmerman; Azevedo) raqamli vositalarning metakognitiv rivojlanishga ijobiy ta'sirini ilmiy jihatdan tasdiqlagan bo'lib, ularning fikriga ko'ra interaktiv ta'lim muhiti o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, o'z ishini boshqarishi va chuqur o'zlashtirishini kuchaytiradi. [3; 4; 5; 6; 7]

Shu sababli biologiya fanini o'qitishda elektron darsliklar, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalarning qo'llanilishi o'quvchi metakognitiv salohiyati va o'quv jarayonini ongli boshqarish darajasiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini o'rganish zamonaviy ta'limning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biridir. [8]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biologiya ta'limida metakognitiv rivojlanishni o'rganishda Flavellning metakognitsiya haqidagi nazariy qarashlari muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. U metakognitiv jarayonlarni o'quvchining o'z fikrlashini kuza-tishi, baholashi va boshqarishi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv elektron darsliklar va onlayn resurslar orqali o'quvchilarning o'z o'rganish faoliyatini ongli boshqarish qobiliyatini kuchaytirishda metodologik poydevor bo'ladi. Dewey va Schönning reflektiv pedagogika bo'yicha ishlari ham o'quvchini tajriba, fikrlash va qayta baholash jarayoniga jalb etishning samarali mexanizmlarini ta'kidlaydi.

Raqamli ta'lim muhiti metakognitiv faollikni oshirishda o'ziga xos imkoniyatlarga ega. Schraw va Dennison tomonidan ishlab chiqilgan MAI metodikasi o'quvchilarning bilim jarayonini boshqarish va o'z bilimini nazorat qilish darajasini aniq baholash imkonini beradi. Zimmerman va Winne o'z-o'zini boshqaruvchi o'qish jarayonida monitoring, rejalashtirish va nazoratning ahamiyatini ko'rsatib, onlayn platformalar ushbu jarayonni sezilarli darajada faollashtirishini ta'kidlaydi. Khan Academy, Moodle va Coursera kabi platformalar moslashuvchan o'qitish, tezkor fikr-mulohaza va mustaqil o'rganish strategiyalarini shakllantiradi.

Multimedia ta'limi bo'yicha Mayerning tadqiqotlari vizual, audial va interaktiv elementlar o'quvchining kognitiv yuklamasini kamaytirishini, murakkab biologik jarayonlarning osonroq anglanishiga yordam berishini ilmiy asoslab bergan. Chi va Wylie tomonidan taklif etilgan ICAP modeli esa o'quv faoliyatini passivdan faol va interaktiv darajaga ko'tarishni ta'riflab, elektron darsliklarning konstruktiv fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. PhET, BiologyLab va Virtual Microscope kabi virtual laboratoriyalar esa biologik jarayonlarni xavfsiz, takrorlanadigan va realistik simulyatsiya qilish orqali metakognitiv kompetensiyalarni yanada chuqurlashtiradi.

Azevedo olib borgan tadqiqotlar virtual muhitda ishlash o'quvchining o'z-o'zini boshqarish, strategiya tanlash va natijani baholash jarayonlarini faollashtirishini ko'rsatadi. OECDning "Education 2030" doirasidagi yondashuvlar esa raqamli pedagogika vositalari XXI asr kompetensiyalarini, xususan metakognitiv fikrlashni shakllantirishda asosiy o'rinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois, raqamli ta'lim platformalari, elektron darsliklar va virtual laboratoriyalar biologiya ta'limida metakognitiv rivojlanishni kuchaytiruvchi ilmiy asoslangan vosita sifatida e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida amalga oshirilib, biologiya fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining o'quvchilarning metakognitiv rivojlanishiga ta'sirini tizimli ravishda aniqlashga qaratildi. Tadqiqot doirasida ikki xil o'quv muhiti shakllantirildi: eksperimental guruh biologiya mashg'ulotlarini elektron darsliklar, raqamli platformalar (Khan Academy, Moodle, Coursera Biology) va virtual laboratoriyalar (Biolo-



gyLab, PhET, Virtual Microscope Lab) yordamida olib bordi; nazorat guruhi esa an'anaviy usullar – chop etilgan darsliklar, auditoriya ma'ruzalari va standart laboratoriya ishlariga tayangan holda o'qitildi.

Tadqiqot 12 haftalik o'quv moduli davomida tashkil etilib, ishtirokchilar 16–17 yoshli akademik litsey o'quvchilari edi. Guruhlar Eksperimental ($n = 56$) va Nazorat ($n = 53$) ko'rinishida taqsimlandi. Taqsimlashdan avval o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasi va metakognitiv ko'rsatkichlar tengligi Student t-testi yordamida aniqlashtirildi. Bu esa keyingi natijalarni adolatli solishtirish uchun metodologik asos yaratdi. Metakognitiv rivojlanish bir nechta ilmiy asoslangan baholash vositalari orqali o'Ichandi. Birinchidan, Schraw va Dennison tomonidan ishlab chiqilgan Metacognitive Awareness Inventory (MAI) qo'llanildi. Ushbu metodika o'quvchilarning "bilim haqida bilim" va "bilim jarayonini boshqarish" komponentlari bo'yicha metakognitiv ong darajasini aniqladi. Ikkinchidan, Dewey va Schön reflektiv pedagogik yondashuvlariga tayangan holda o'quvchilarning reflektiv kundaliklari tahlil qilindi.

Bu kundaliklarda o'quvchilar o'z faoliyati, duch kelgan qiyinchiliklari, qo'llagan strategiyalari hamda tushunish jarayonidagi o'zgarishlarni muntazam ravishda qayd etib bordi. Uchinchidan, Azevedo, Zimmerman va Winne tadqiqotlariga asoslangan virtual laboratoriya topshiriqlari baholash tizimi qo'llanildi. Bunda gipoteza qo'yish, tajriba rejalashtirish, kuzatish, ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ilmiy tadqiqot ko'nikmalari ballik mezon asosida baholandi.

Eksperimental guruhda o'qitish jarayoni raqamli vositalar bilan boyitilgan bo'lib, vizual elektron darsliklar, adaptiv onlayn testlar va virtual laboratoriyalar orqali murakkab biologik jarayonlarni simulyatsiya qilish imkonini berdi. Ushbu yondashuv o'quvchilardan metakognitiv faoliyatning to'liq siklini – rejalashtirish, monitoring, nazorat, baholash va refleksiyaning – muntazam amalga oshirishni talab qildi. Bu jarayon o'quvchilarda nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki o'z o'rganish jarayonini boshqarish kompetensiyasini ham sezilarli darajada faollashtirdi.

Tadqiqot natijalari SPSS 25.0 dasturida statistik jihatdan qayta ishlanib, Student t-testi, Pearson korrelyatsiyasi, ANOVA va o'rtacha qiymatlar farqi tahlillari orqali guruhlar o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Ushbu metodlar metakognitiv rivojlanish dinamikasini ishonchli tarzda baholashga imkon berdi.

Tadqiqotning nazariy asoslari yetakchi olimlarning ilmiy qarashlariga tayanadi. Flavell tomonidan ilgari surilgan metakognitsiya nazariyasi, Zimmermanning o'z-o'zini boshqaruvchi o'qish modeli, Winne tomonidan ishlab chiqilgan bilimni monitoring qilish yondashuvi, Azevedoning virtual o'quv muhiti va metakognitiv faollik o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi tadqiqotlari ushbu izlanishning metodologik poydevorini tashkil etdi. Shuningdek, Schraw va Dennisonning MAI metodikasi, Chi va Wylie tomonidan taklif etilgan ICAP modeli hamda Mayerning multimedia ta'limi nazariyasi tadqiqot dizayni va tahlil jarayonlarining ilmiy asosini mustahkamladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot biologiya ta'limida raqamli vositalar va metakognitiv strategiyalarning qo'shma ta'sirini empirik ravishda ko'rsatib, o'quvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishi, o'rganish jarayonini boshqarishi va ilmiy-tahliliy fikrlash qobiliyatining sezilarli darajada rivojlanishini asoslab berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, elektron darsliklar, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish biologiya fanida metakognitiv rivojlanishni sezilarli darajada faollashtiradi. Eksperimental guruhda o'quvchilarning metakognitiv kompetensiyalarida aniq va statistik jihatdan muhim o'sish kuzatildi. Eng avvalo, elektron darsliklardan foydalanish o'quvchilarning o'rganish jarayonini ongli tashkil etishiga katta ta'sir ko'rsatdi. MAI (Metacognitive Awareness Inventory) natijalariga ko'ra, eksperimental guruhda rejalashtirish ko'rsatkichi 21 foizga, monitoring ko'rsatkichi 18 foizga, o'z-o'zini baholash ko'rsatkichi esa 24 foizga oshdi. Bu o'sish elektron darsliklardagi interaktiv grafiklar, animatsiyalar, bosqichma-bosqich tushuntirilgan biologik jarayonlar hamda mini-testlarning metakognitiv boshqaruvni kuchaytirishdagi salohiyatini tasdiqlaydi.

Shuningdek, onlayn ta'lim platformalari (Khan Academy, Moodle, Coursera) o'quvchilarning mustaqil o'qishga bo'lgan qiziqishi va o'z bilimlarini nazorat qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Adaptiv topshiriqlar, darhol fikr-mulohaza beradigan testlar va shaxsiylashtirilgan o'quv yo'nalishlari o'quvchilarda mustaqil o'rganish strategiyalarining shakllanishi, xatolarni tahlil qilish, o'zlashtirish jarayonini monitoring qilish va metakognitiv faollikning ortishiga olib keldi. Tadqiqot davomida eksperimental guruhdagi o'quvchilarning 78 foizi darsdan tashqari vaqtda ham onlayn platformalarda mustaqil ishlashni davom ettirgani, videodarslarni ko'rgani va testlarni qayta bajarib natijalarni tahlil qilgani aniqlandi. Bu esa metakognitiv nazoratning kuchayishida muhim omil bo'ldi.


Bundan tashqari, virtual laboratoriyalar (PhET, BiologyLab, Virtual Microscope) o'quvchilarning ilmiy izlanish jarayonini boshqarish qobiliyatini sezilarli darajada oshirdi. Virtual muhitda o'tkazilgan tajribalar o'quvchilarda tajribani ongli rejalashtirish, kuzatish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi yuqori dara-



jadagi ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarining shakllanishiga yordam berdi. Tadqiqot o'lchovlari natijasida rejalashtirish ko'rsatkichi 27 foizga, natijalarni tahlil qilish ko'rsatkichi 30 foizga, refleksiv fikrlash ko'rsatkichi esa 34 foizga oshgani qayd etildi. Virtual laboratoriyalarning xavfsiz, takrorlanadigan va vizual jihatdan boy muhit yaratishi o'quvchilarni xatolarini tahlil qilish, yangi strategiyalar ishlab chiqish va tajriba dizaynini takomillashtirishga undadi. Bu esa metakognitiv jarayonlarning tabiiy ravishda faollashuviga xizmat qildi.

Yakuniy tahlillar eksperimental guruhdagi o'quvchilarning umumiy metakognitiv rivojlanish indeksining nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori ekanini ko'rsatdi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalar o'quvchilarda bilimni ongli o'zlashtirish, o'z-o'zini boshqarish, tahliliy fikrlash va refleksiv yondashuv kabi yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni kuchaytiruvchi samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot natijalari biologiya ta'limida raqamli texnologiyalar metakognitiv rivojlanishni tezlashtiruvchi ilmiy asoslangan yondashuv ekanini dalilladi.

Quyidagi diagramma tadqiqot natijalariga asoslangan holda metakognitiv rivojlanishning o'sish ko'rsatkichlarini aks ettiradi.



Tadqiqot natijalari o'quv jarayonida qo'llanilgan raqamli pedagogika vositalari – elektron darsliklar, onlayn ta'lim platformalari va virtual laboratoriyalarning biologiya ta'limida metakognitiv rivojlanishni sezilarli kuchaytirishini ko'rsatdi. Ushbu natijalar zamonaviy o'quv faoliyatini tavsiflovchi ICAP modeli (Chi & Wylie) bilan to'liq mos keladi. [3] Modelga ko'ra:

- elektron darsliklar o'quvchini faol (Active) o'quv jarayoniga jalb etadi;
- onlayn platformalar o'quvchini konstruktiv (Constructive) faoliyatga yo'naltiradi;
- virtual laboratoriyalar interaktiv (Interactive) o'quv faoliyatini yaratadi.

Shunday qilib, raqamli vositalar o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol va refleksiv fikrlashga aylantiradi.

Metakognitiv rivojlanish nazariyasi asoschisi J. Flavell ta'kidlaganidek, o'quvchi o'z fikrlash jarayonini kuzatish, nazorat qilish va strategik boshqarishga qodir bo'lganida ta'lim jarayoni chuqur samaradorlik kasb etadi. Ushbu tadqiqotda qo'llanilgan elektron resurslar metakognitiv siklning barcha bosqichlarini kuchaytirgani aniqlandi. Elektron darsliklar rejalashtirish va mazmunni monitoring qilish ko'nikmalarini oshirsa, onlayn platformalar o'z-o'zini baholash, xatolarni aniqlash va o'rganish strategiyasini optimallashtirishga yordam beradi.

Virtual laboratoriyalar (Azevedo, Zimmerman) o'quvchilarning ilmiy izlanish jarayonini boshqarish, tajribani rejalashtirish, kuzatish, tahlil va xulosa chiqarish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. O'quvchi tajriba natijasini taxmin qiladi, natija bilan kutilgan natijani solishtiradi, xatolarni ko'radi va strategiyasini o'zgartiradi. Bu jarayon metakognitiv faoliyatning eng yuqori bosqichlarini talab qiladi.

R. Mayerning multimedia ta'limi nazariyasi ham ushbu tadqiqot natijalarini qo'llab-quvvatlaydi. Mayerga ko'ra, vizual va audial kanallarning birgalikda ishlatilishi murakkab biologik jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi va kognitiv yuklamani kamaytiradi. [4]



Umuman olganda, raqamli ta'lim vositalari o'quvchilarda:

- o'z fikrini boshqarish,
- o'z-o'zini baholash,
- tahliliy fikrlash,
- refleksiv yondashuv,
- ilmiy izlanish kompetensiyalari

kabi metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shu bois, elektron darsliklar, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalar integratsiyasi biologiya ta'limida metakognitiv rivojlanishni tezlashtiruvchi kuchli pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

№	Asosiy g'oya	Izoh
1	Elektron darsliklarning roli	Faol (Active) kognitiv jarayonni rag'batlantiradi; rejalashtirish va monitoringni kuchaytiradi.
2	Onlayn platformalar ta'siri	Konstruktiv (Constructive) o'qishni rivojlantiradi; o'z-o'zini baholash va xatolarni tahlil qilishni kuchaytiradi.
3	Virtual laboratoriyalar samarasi	Interaktiv (Interactive) tajriba qilish, kuzatish, gipoteza qo'yish va tahlil jarayonini kuchaytiradi.
4	Flavell metakognitiv nazariyasi	Fikrlash jarayonini boshqarish, nazorat qilish va refleksiya qilish ko'nikmasini ta'minlaydi.
5	Azevedo va Zimmerman qarashlari	Virtual muhitda o'quvchining izlanish, tahlil va strategiya tanlash ko'nikmalari rivojlanadi.
6	Mayer multimedia nazariyasi	Vizual–audial materiallar kognitiv yuklamani kamaytiradi va murakkab jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi.
7	Metakognitiv kompetensiyalar	O'z fikrini boshqarish, refleksiv yondashuv, tahliliy fikrlash va o'z-o'zini baholash shakllanadi.
8	Umumiy xulosa	Raqamli vositalar integratsiyasi metakognitiv rivojlanishni sezilarli darajada tezlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, biologiya fanini o'qitishda elektron darsliklar, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish o'quvchilarning metakognitiv rivojlanishini sezilarli darajada tezlashtiradi. Raqamli pedagogika vositalari o'quvchilarda bilimni ongli o'zlashtirish, o'z-o'zini boshqarish, muammoli vaziyatlarni yechish, ilmiy mantiqni qo'llash va refleksiv fikrlash kabi yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Elektron darsliklarning interaktiv tuzilishi, vizual materiallarning ko'pligi va mazmunning bosqichma-bosqich izohlanishi o'quvchilarning o'quv jarayonini rejalashtirish, tahlil qilish va nazorat qilish kabi metakognitiv strategiyalarni rivojlantiradi. Onlayn platformalar esa darhol fikr-mulohaza berish, adaptiv topshiriqlar orqali individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish va o'zlashtirish natijalarini tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa o'quvchilarda o'z-o'zini baholash, xatolarni aniqlash va o'rganishni boshqarish ko'nikmalarini kuchaytiradi.

Virtual laboratoriyalar o'quvchilarni ilmiy izlanish jarayoniga faol jalb etib, ularning tajribani rejalashtirish, kuzatish, natijalarni solishtirish va ilmiy asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Bu laboratoriyalar murakkab biologik jarayonlarni xavfsiz, takrorlanadigan va ilmiy asosda modellashdirish imkonini berar ekan, o'quvchi metakognitiv siklning barcha bosqichlarini – rejalashtirish, monitoring, nazorat va refleksiya – faol qo'llashga majbur bo'ladi. [7; 12]

Xalqaro tadqiqotlar (Mayer, Zimmerman, Chi & Wylie, Azevedo) ham shuni ta'kidlaydiki, raqamli ta'lim muhiti metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish va mustaqil o'rganish jarayonini boshqarishda eng samarali platformalardan biridir. Ayniqsa, biologiya kabi tajribaviy fanlarda raqamli vositalarning ahamiyati yanada yuqori bo'lib, ular o'quvchilarning ilmiy tafakkurini, tahliliy fikrlash madaniyatini va kuzatuvchanlik darajasini oshiradi. [3; 4; 5; 7]

Shu bois, biologiya ta'limini raqamli texnologiyalar bilan boyitish nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshiradi, balki o'quvchilarda XXI asr kompetensiyalarining – mustaqil o'rganish, ilmiy fikrlash, refleksiv va metakognitiv faoliyatning shakllanishiga xizmat qiladi. Raqamli vositalar ta'limni shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va interaktiv jarayonga aylantiradi. Bu esa biologiya fanini o'qitishda yuqori samaradorlikka erishishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Flavell, J. H. (1976). Metacognitive aspects of problem solving. In L. B. Resnick (Ed.), *The Nature of Intelligence*. Hillsdale: Erlbaum.
2. Schraw, G., & Dennison, R. S. (1994). Assessing metacognitive awareness. *Contemporary Educational Psychology*, 19(4), 460–475.
3. Chi, M. T. H., & Wylie, R. (2014). The ICAP framework: Linking cognitive engagement to active learning outcomes. *Educational Psychologist*, 49(4), 219–243.
4. Mayer, R. E. (2019). *Multimedia Learning* (3rd ed.). New York: Cambridge University Press.
5. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. *Theory Into Practice*, 41(2), 64–70.
6. Winne, P. H. (1997). Experimenting to bootstrap self-regulated learning. *Journal of Educational Psychology*, 89(3), 397–410.
7. Azevedo, R. (2009). Theoretical, conceptual, methodological, and instructional issues in research on metacognition and self-regulated learning. *Metacognition and Learning*, 4(1), 87–95.
8. OECD (2021). *The Future of Education and Skills: Education 2030 Framework*. OECD Publishing.
9. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder. <https://phet.colorado.edu>
10. Khan Academy Biology Course Materials (2020–2024). Khan Academy.
11. Coursera Biology Learning Programs (2020–2024). Coursera, Inc.
12. Virtual Microscope & BiologyLab Platforms (2021–2024). Digital Laboratory Resources for Biology Education.
13. Dewey, J. (1933). *How We Think*. Boston: D.C. Heath & Co.
14. Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York: Basic Books.
15. Krippendorff, K. (2004). *Content Analysis: An Introduction to Its Methodology*. Thousand Oaks: Sage Publications.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.